

## MAKTABGACHA TA‘LIM YOSHDAGI BOLALARNI MAKTAB TA‘LIMIGA TAYYORLASHNING ZAMONAVIY O‘QUV METODLARI TIZIMI

Kichiboyeva Fotima Choriyevna

*Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani Qarashina shaharchasi:*

*I-DMTT-pedagog tarbiyachi*

**Anotatsiya:** *ushbu maqolada maktabgacha ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish bo‘yicha qaror tizimi hamda maktabgacha yoshdagi bolalarni ta‘lim-tarbiya jarayonini zamonaviy metodlari. Davlat talablari ilk qadam o‘quv dasturi hamda “ilm yo‘li” variantiv dasturi asosida rivojlantirilgan ta‘lim tizimi haqida haqida fikrlar yoritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Maktabga sifatli tayyorlov, zamonaviy o‘quv dasturi, ilk qadam, Davlat talablari, “Ilm yo‘li”.*

Variantiv dasturi. Maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish bo‘yicha qaror majmuasi prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “ Inson qadri uning huquq va manfaatlari-oliy qadriyat degan tamoyil asosida mamlakat aholisi uchun munosib turmush sharoitini yaratishini Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishi etib belgilagan.

Bu borada avvalambor yoshlar va bolalarga e‘tibor va amaliy g‘amxo‘rlik ko‘rsatish ularni jismoniy va ma‘daniy barkamol etib tarbiyalashdek alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Holbuki farzandlar tarbiyasida eng asosiy bo‘g‘in hisoblangan maktabgacha ta‘lim tizimining ijtimoiy hayotimizda o‘rni ahamiyatini hech narsa bilan o‘lchab baholab bo‘lmaydi.

Islahotlar birinchi kunlardan mavjud ta‘lim sohasini xususan maktabgacha ta‘limni tubdan modernizatsiya qilishga qaratilgan.

O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda o‘zib borayotgan avlodni har tomonlama etuk voyaga yetkazish ta‘lim-tarbiya jarayoniga samarali tizimini tashkil etish ishlar amalga oshirildi

Maktabgacha ta‘lim sohasida olib borilgan tahlil bo‘lalarining maktabgacha ta‘lim bilan qamrovini ta‘minlash Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarini zamonaviy o‘quv metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to‘ldirish sohada malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko‘rsatmoqda.

2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi quyidagilarni nazarda tutgan holda Maktabgacha ta‘lim sohasida normative-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish. Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellectual ahloqiy estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yuritish. Bolalarning sifatli Maktabgacha ta‘lim bilan qamrovni oshirish undan keng foydalanish imkoniyatlarini ta‘minlash, mazkur sohada davlat xususiy sheriklikni rivojlantirish;

Maktabgacha ta‘lim tizimida inovatsiyalarni ilg‘or pedagogik va axborot kommunikatsiyatexnologiyalarni joriy etish;

Maktabgacha ta‘limni boshqarish tizimini takomillashtirish maktabgacha ta‘lim tashkiloti samaradorligini ta‘minlash;

Maktabgacha ta‘lim tizimida Maktabgacha ta‘lim tizimi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash malakasini oshirish tanlab olish va rivojlantirishda mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish qarori ishlab chiqilgan va ushbu qaror ijrosi yuzasidan qator yangi tizim samarasi yo‘lga qo‘yilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligining tashabbusi bilan 999-sonli qaroriga asosan 6- yoshli bolalarni har tomonlama bolalarni rivojlantirish, ularga ta‘lim tarbiya berish va maktabga tayyorlash maqsadida “Ilm yo‘li” variantiv dasturi ishlab chiqildi,

Davlat o‘quv dasturini amalga oshiruvchi zamonaviy o‘quv tizimini pedagogic sifatida boshqaradi.

Markazlar va davlatlar talablari nizomi bilan uyg‘unlashgan holda olib boriladi.

Dastur asosida bola shaklining rivojlanishidagi asosiy sohalar.

1. Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish.
2. Ijtimoiy hissiy rivojlanish.
3. Nutq muloqat o‘qish va yozish ko‘nikmalari.
4. Bilim olish ( anglash orqali rivojlanish)
5. Ijodiy rivojlanish.

Ushbu tizim maktab ta‘limiga tayyorlashning asosiy zamonaviy vezonlar turiga kiradi. O‘quv yili Rivojlanish xaritasi yo‘l yo‘rig‘I dastlabki tayyorlov guruhi bo‘yicha o‘tkazilgan monitor kutilayotgan natijalar bilan taqqoslanib o‘quv yiliga ustuvor vazifalarni bewlgilaydi.

Xulosa o‘rnida; o‘quv dasturlarini zamonaviy o‘quv dasturi bo‘yicha ilg‘or xalqaro tajribani hisobga olgan holda olib borish taraqqiyot yuksalishining asosiy poydevori bo‘lib xizmat qiladi. Zero bolalar ertangi yurt kelajagidir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Yangi O‘zbekiston ye-auksoin.uz.
2. Ilk qadam o‘quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr 2022- yil 4-fevral.
3. 2030 yilgacha Maktabgacha ta‘lim tizimini rivojlantirish tizimi, president qarori 2018-yil 30-sentyabr PQ-3955.
4. “Ilm yo‘li” variantiv dasturi Toshkent 2020.
5. O‘zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga qo‘yiladigan Davlat talablari 2018-yil 3-iyul.